

## “AYOLLAR QANOTI” FAOLIOYATINING YANGI BOSQICHI (O‘ZLIDEP BUXORO VILAYATI KENGASHI MISOLIDA)

**Kazakova Marifat Dexkanovna**

**Buxoro davlat universiteti**

**Jahon tarixi kafedrası mustaqil izlanuvchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.8382056>**

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdá tadbirkorlar va ishbiáarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Buxoro viloyati kengashi “Ayollar qanoti” ning 2017-2022-yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, tadbirkor va fermer xotin-qizlarning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy savodxonligini yangi bosqichga ko‘tarish borasidagi faoliyati bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Partiya, tadbirkor, fermer, Buxoro, xotin-qizlar, liberal-demokratik g‘oya, ijtimoiy-siyosiy faollik, “Ayollar qanoti”

### **KIRISH.**

2017-yildan O‘zbekistonda barcha sohalarda yangilanishlar davri boshlandi. Ayniqsa, fuqarolik jamiyati institutlarida ham jadal o‘zgarishlar va yangilanishlar yuz berdi. Xususan, Tadbirkorlar va ishbiáarmonlar harakati - O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi o‘z dasturida ayrim o‘zgarishlar kiritdi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, tadbirkor va fermer xotin-qizlarning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy savodxonligini oshirish, ularning huquqlarini himoya qilish, ayniqsa, jamiyatning eng ilg‘or qatlami tadbirkor va ishbiáarmon xotin-qizlarning tajribasini ommalashtirish borasida qator tadbirlar amalga oshirildi.

### **MAVZUGA OID MANBALAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Alohida kichik tadqiqot sifatida o‘rganilayotgan ushbu mavzuni yoritib berish uchun O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Buxoro viloyati kengashi joriy arxivi, mavzuga oid maqolalar va internet ma‘lumotlaridan foydalanildi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Bugun O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga, davlat boshqaruvi va jamiyatning barcha jarayonlarida ularning rolini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlarning alohida maqomi va ularga nisbatan hurmatni tiklash, gender tenglik sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining asosiga aylandi.

Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, gender tenglikni ta‘minlash siyosatini davom ettirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish joylariga ega bo‘lishlari uchun har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashni o‘z maqsadlaridan biri qilib belgilab olgan O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va uning tarkibidagi “Ayollar qanoti” faoliyati so‘nggi yillarda ancha kengayganligini ko‘rish mumkin.

2017-yildan mamlakatimizda boshlangan keng ko‘lamli islohotlarning amalga oshirilishida O‘zLiDeP bir qancha tashabbuslar bilan chiqib, o‘zining mamlakatning eng faol siyosiy partiyasi ekanligini namoyish qila boshladi. Viloyatlarda faol demokratik yangilanishlar hamda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda O‘zLiDeP alohida o‘rin egallab kelmoqda.

O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi “Ayollar qanoti” xotin-qizlarni tadbirkorlik harakatiga keng jalb qilish, ular bandligini ta‘minlash, biznes g‘oya hamda tashabbuslarini amalga oshirishga asosiy ustuvor vazifa bo‘lib kelmoqda. Binobarin, aynan ishbiáarmon, faol

xotin-qizlar mamlakatda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning bevosita ishtirokchilari hisoblanishadi<sup>1</sup>. Buxoro viloyati xotin-qizlarining siyosiy jarayonlarga integratsiyalashuvi, mamlakat iqtisodiyoti, kichik biznes va xususiy sektor rivojlanishida tadbirkor va fermer xotin-qizlarning faol ishtirokini ta'minlash, yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlar mohiyatini ayollar o'rtasida keng targ'ib qilishda O'zLiDeP Buxoro viloyat Kengashi "Ayollar qanoti" muhim rol o'ynamoqda.

2017-yil "Xalq bilan muloqot inson manfaatlarini yili" Davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida yil davomida "Ayollarning siyosiy faolligini, jamiyatdagi o'rne va mavqeyini oshirish bo'limi" hamda Buxoro viloyat Kengashi "Ayollar qanoti" tashabbusi bilan viloyatning barcha tuman va shaharlarida 152 ta o'quv seminari, uchrashuv, davra suhbatlari tashkil qilindi<sup>2</sup>. Yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, fermer va dehqon xotin-qizlar manfaatlarini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan 227 ta tadbir tashkil qilinib, ularda 120973 nafar shaxs ishtirok etdi.

Buxoro viloyati Qorako'l tumanida "Xotin-qizlarning ma'naviy xavfsizligini ta'minlashdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari" mavzusida (105 nafar kishi), Qoravulbozor tumanidagi "Cho'lquvar" MFYda "Jismoniy va ma'naviy kamolot uyg'unligi -sog'lom va farovon turmush garovi" mavzusida (31 nafar kishi), "Sog'lom oila -mustahkam oila" loyihasi doirasida Buxoro tuman "Raboti-Qalmoq" MFY da (44 nafar kishi), Kogon shahar "Ziyokor" MFY da (28 nafar kishi), Shofirkon tumanida (47 nafar kishi) davra suhbatlari va ochiq xayriya tadbirlari tashkil qilindi. Birgina sog'liqni saqlash sohasida O'zLiDeP partiyasi Buxoro viloyati kengashi "Ayollar qanoti" tashabbusi bilan 30 dan ortiq tadbir tashkillashtirilib, unga 2430 shaxs jalb qilindi<sup>3</sup>.

2017-yil davomida "Ayollar qanoti" guruhi tomonidan 41 ta tadbir viloyat televideniyesi va "Istiqlol" TV orqali efirga uzatildi. 23 ta maqola viloyat shahar va tumanlar gazetalarida chop etilgan bo'lsa, partiya gazetasi hisoblanuvchi "XXI asr" gazetasida 18 ta maqola nashr qilindi. Erkin tadbirkorlik va fermerlik, fundamental, amaliy hamda innovatsion tadqiqotlar olib borish, demografik rivojlanishni rag'batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish, oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash borasida partiya tomonidan qator loyihalar ilgari surildi.

2018-2019-yillarda O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi tomonidan viloyat xotin-qizlarining ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish masalalariga bag'ishlangan qator tadbirlar tashkil qilindi. 2018-yil oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va maktablarning yuqori sinf o'quvchilari bilan 141 ta davra suhbatlari, uchrashuv va ochiq muloqotlar bo'lib o'tgan bo'lsa<sup>4</sup>, 2019-yilga kelib bu ko'rsatkich 266 taga yetdi va bu uchrashuv, davra suhbatlarining natijasi o'laroq 578 nafar xotin-qiz partiya a'ziligiga qabul

<sup>1</sup> Ашурова З. Ўзбекистондаги сиёсий жараёнларда аёлларнинг фаол иштирок этишига алоҳида аҳамият қаратилмоқда//xs.uz

<sup>2</sup> O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2017-yil ma'lumoti

<sup>3</sup> O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2017-yil ma'lumoti

<sup>4</sup> O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2018-yil ma'lumoti

qilindi<sup>5</sup>.

“Oilaviy tadbirkorlikdan –mustahkam oilaga”, “Fermer ayollar” va “Har bir oila tadbirkor” loyihalari doirasida viloyatning Romitan, Jondor, G’ijduvon, Qorako’l, Shofirkon tumanlarida “Tadbirkor ayollarning muammolarini o’rganish guruhlari” tashkil qilindi.

“Bunyodkor ayollar” loyihasi doirasida “O’zLiDeP –tadbirkor ayollar manfaatlarini himoyachisi” mavzusida barcha tuman va shahar Kengashlarida loyiha taqdimotlari o’tkazildi. Unda 362 nafar xotin-qizlar ishtirok etdi. Tashkillashtirilgan tadbirlarda 79 nafar ishtirokchi partiya a’zolariga qabul qilindi. 13 nafar xotin-qiz O’zLiDeP tuman va shahar Kengashi raisining Ayollar masalalari bo’yicha o’rinbosari nomzodligiga zahiraga olindi<sup>6</sup>. Shuningdek, taqdimotlar bilan qatnashganlarga tijorat banklari tomonidan kredit olish huquqini beruvchi sertifikatlar taqdim etildi.

O’zLiDeP viloyat Kengashi “Ayollar qanoti” tomonidan 2019-yil 84 ta tadbir markaziy va hududiy OAV da yoritildi. Jumladan, 2 ta tadbir “O’zbekiston 24”, 16 ta tadbir “Mahalla” TV, 32 ta tadbir mahalliy teleradiokallarda tashkil etildi.

Partiya tomonidan ilgari surilgan dasturlarning amalga oshirilishi, keng ko’lamliligi, Harakatlar strategiyasi doirasida qilingan ishlar samaradorligi sababli yildan yilga unga a’zo bo’lishni istovchi xotin-qizlar soni ortib bormoqda. 2020-yil xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning munosib mehnati va turmushi, qobiliyat va salohiyatini namoyish etishi uchun shart-sharoit yaratish, onalik va bolalikni, oila institutini muhofaza qilish, jamiyatda xotin-qizlarning roli va maqomini oshirishga bag’ishlangan 590 ta tadbir tashkil qilinib, ularda 5109 nafar xotin-qizlar qamrab olindi<sup>7</sup>. 2021-yilda 526 ta davra suhbat, uchrashuv hamda tadbirlarda 16573 nafar xotin-qizlar qatnashib, shulardan 10338 nafar xotin-qiz partiya safiga qabul qilingan bo’lsa<sup>8</sup>, 2022-yilda tashkil qilingan 524 ta ommaviy tadbirlarda 19882 nafar xotin-qizlar ishtirok etdi. Aynan shu yilda viloyat miqyosida record darajada ya’ni 32553 nafar xotin-qizlar partiya safiga qabul qilindi<sup>9</sup>. Mazkur statistik ma’lumotlar Buxoro viloyati kesimida ham ayollarning partiya saflaridagi ishtiroki o’sganligini ko’rsatadi.

2021-2022-yillarga mo’ljallangan “Xotin-qizlar ishbilarmonligini oshirish”<sup>10</sup> dasturini amalga oshirish maqsadida har bir mahallada ishsiz, uyda o’tirgan xotin-qizlar bandligini ta’minlash, ularni doimiy daromad manbaiga ega qilish, tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashlariga ko’maklashish, shu bilan birga ayollar orasidagi ishsizlik darajasini kamaytirish maqsadida uchrashuvlar tashkil qilindi.

### **O’zLiDeP Buxoro viloyat Kengashi “Ayollar qanoti” ning 2021-2022-yillarda amalga oshirgan tadbirlari haqida ma’lumot<sup>11</sup>**

№	Loyiha va dastur nomlari	Tadbirlar soni	Ishtirok etgan xotin-qizlar
---	--------------------------	----------------	-----------------------------

<sup>5</sup> O’zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi “Ayollar qanoti” joriy arxivi, 2019-yil ma’lumoti

<sup>6</sup> O’zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi “Ayollar qanoti” joriy arxivi, 2019-yil ma’lumoti

<sup>7</sup> O’zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi “Ayollar qanoti” joriy arxivi, 2020-yil ma’lumoti

<sup>8</sup> O’zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi “Ayollar qanoti” joriy arxivi, 2021-yil ma’lumoti

<sup>9</sup> O’zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi “Ayollar qanoti” joriy arxivi, 2022-yil ma’lumoti

<sup>10</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar to’g’risida// <https://lex.uz/docs/-5248393?ONDATE=30.09.2020%2000>

<sup>11</sup> O’zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi “Ayollar qanoti” joriy arxivi, 2021-2022-yil ma’lumotlari

		2021- yil	2022- yil	2021-yil	2022-yil
1	Yangi O'zbekiston-yangicha boshqaruv	160 ta	42 ta	5212 nafar	14791 nafar
	Yangi O'zbekiston –baxtli insonlar mamlakati	69 ta	14 ta	1904 nafar	363 nafar
2	Ayol –yuksak ma'naviyat sohibasi	-	17 ta	-	767 nafar
3	“Durdona” ma'rifiy loyihasi	53 ta	33 ta	1639 nafar	1061 nafar
4	“Farovon oila”	23 ta	30 ta	619 nafar	1395 nafar
5	Bir deputat –yuz ayolga ko'makchi!	-	94 ta	-	6461 nafar
6	Yangi O'zbekiston: xavfsiz, tinch va barqaror mamlakat	23 ta	17 ta	517 nafar	453 nafar

2022-yil davomida O'zLiDeP “Ayollar qanoti” tomonidan o'tkazilgan partiyaviy tadbirlar uzlidep.uz saytida 65 marotaba, “O'zbekiston 24” kanalida 13 marta, “XXI asr” gazetasida 4 marta, ijtimoiy tarmoqlarda 496 marta, viloyat televideniya-sida 19 marta yoritildi.

#### **XULOSA**

O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi xotin-qizlarning intellektual va inson salohiyatini kuchaytirish, o'zligini namoyon qilishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarning yaratilishi, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvida ularning rolini kuchaytirish, OTM bitiruvchilari bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishda salmoqli ishlarni amalga oshirilmoqda.

#### **References:**

1. Ашурова З. Ўзбекистондаги сиёсий жараёнларда аёлларнинг фаол иштирок этишига алоҳида аҳамият қаратилмоқда//xs.uz
2. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi “Ayollar qanoti” joriy arxivi, 2017-yil ma'lumoti
3. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi “Ayollar qanoti” joriy arxivi, 2018-yil ma'lumoti
4. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi “Ayollar qanoti” joriy arxivi, 2019-yil ma'lumoti
5. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi “Ayollar qanoti” joriy arxivi, 2020-yil ma'lumoti
6. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi “Ayollar qanoti” joriy arxivi, 2021-yil ma'lumoti
7. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi “Ayollar qanoti” joriy arxivi, 2022-yil ma'lumoti